



Mavzu: Atama va atamashunoslik. Iboralar uslubiyati.

O'qituvchi: Ruzikulova G. F.



TIIAME

Tayanch so'z va iboralar:

*ta'rifi, atama va termin, tarixiylik,
atamalar shakllanishining xalq tarixi bilan
bog'liqligi, "Devonu lug'otit-turk",
sohaviylik, tor doira, jamiyat taraqqiyoti,
atamalar va dunyo tillari, boyish yo'llari,
o'zlashtirish, milliylashtirish*



АТАМАЛАР



TILAME

Ilmiy adabiyotlarda ta'kidlanishicha,
ma'lum fan, ishlab chiqarish
sohasidagina qo'llaniladigan va asosan
o'sha soha kishilari tushunadigan
maxsus so'zlar terminlar – atamalar
sifatida qaraladi.



“Hozirgacha termin tushunchasi tilshunoslikda turlicha talqin qilinmoqda – deb qayd etishadi. “O’zbek tili leksikologiyasi” asarining mualliflari. – Ba’zi tilshunoslar terminga ilm va texnikaga oid so’z va iboralarnigina emas, barcha uy-ro’zg’or asboblari nomlarini, ishlab chiqarishning hozirgi darajasidagi qurollarnigina emas, balki o’tmishtagi ibtidoiy qurollarning barcha nomlarini, shuningdek, kustarchilik kasb-hunarga oid so’zlarni ham kiritadilar.



TIIAME

Demak, “atama” so’zini “termin” tushunchasi ma’nosida qo’llaganimizda, uni umuman narsa-predmetlar, voqea-hodisalarning nomi sifatida emas, balki aniq bir ilmiy tushunchani ifodalaydigan va ma’lum bir fan sohasiga tegishli bo’lgan birliklarni anglashimiz lozim.



Atamalarning o'rganilishi




TIIAME

1. O'zbek tilshunosligida atamalarni o'rganishga doir ko'pgina ishlar amalgam oshirilgan. Ko'plab ilmiy kitoblar, risolalar, lug'atlar, ilmiy va ilmiy-ommabop maqolalar yozilgan, dissertatsiyalar himoya qilingan. Bu borada 200 dan ortiq lug'atlarning nashr etilishi fanimizning katta yutug'i hisoblanadi. O'zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi, "Lotin yozuvi asosidagi o'zbek alifbosiga o'tish to'g'risida"gi Qonunning qabul qilinishi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Atamalar qo'mitasi olib borayotgan yirik hajmdagi ishlar atamashunoslik sohasining yanada yuqori bosqichga ko'tarilishiga sabab bo'ldi.

Atamalarning dastlab ikki katta guruhga ajratish to'g'ri bo'ladi:

Umumiylit
xususiyatiga ega
bo'lgan atamalar



Xususiylik
hususiyatiga ega
bo'lgan atamalar.



TIIAME

Umumiy atamalar sirasiga bir terminologik tizimning barcha yo'nalishlari uchun tushunarli bo'lgan atamalar kiradi. Masalan, sportdagi *musobaqa, sovrin, sovrindor, yutuq, g'alaba, birinchilik, championat, ko'rik, trener, hakam* atamalarini sportning barcha turlarida bemalol qo'llash mumkin. Fizikaga oid *issiqlik, temperature, jism, elektr, magnit, gaz, harakat, energiya, maydon* singari atamalar haqida ham shu gaplarni aytish mumkin.



TIIAME

Xususiy atamalar esa faqatgina bitta mavzuviy guruh doirasida amal qiladi. Masalan, yuqorida keltirilgan fizikaga oid atamalar uning barcha sohalarida qo'llanilishi mumkin bo'lгани holda, *gravitatsiya, diod, termoster, kondensatsiya, kapillyar hodisalar singari* atamalar yoki kimyoga oid *gidroksid, oksid, sulfat kislotasi, xlorid kislotasi* kabi atamalar tor ixtisos doirasida qo'llaniladi. Bunday holatni fanlarning barcha yo'nalishlari va sohalarida kuzatish mumkin.



**Terminologiya (termin va ... logiya) —
tilshunoslikning terminlarni o'r ganuvchi
sohasi.**



TILAME

**Bugungi kunda o'zbek atamashunosligining boyishi,
asosan, boshqa tillardan so'z olish va ichki so'z
yasash hisobiga ro'y bermoqda.**



TILAME

**E'TIBORINGIZ
UCHUN RAHMAT!**